



UDK: 94. (575.171) (093) “18”

**Maftuna SIROJIDDINOVA,**

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti tayanch doktorant*

*E-mail: mf.sirojiddinova@gmail.com*

*O‘zRFASHI professori, t.f.d U.Sultonov taqrizi asosida*

### LETTERS FROM THE PALACE OFFICE OF THE KHIVA KHANATE

Annotation

This article analyzes the types and content of several types of letters from the palace chancery of the Khiva Khanate. It examines the formation of the traditional administrative system and reveals documents related to the system of public administration.

**Key words:** Khiva Khanate, divan, letters, omonname, ozodname, fatkhname, inoyatname.

### ПЕРЕПИСКИ ИЗ ДВОРЦОВОЙ КАНЦЕЛЯРИИ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА

Аннотация

В статье анализируются виды и содержательные особенности нескольких видов переписки из дворцовой канцелярии Хивинского ханства. Изучается процесс формирования традиционной административной системы документооборота и раскрываются документы, связанные с системой государственного управления.

**Ключевые слова:** Хивинское ханство, диван, письма, омоннаме, озоднаме, фатхнаме, иноятнаме.

### XIVA XONLIGI SAROY DEVONXONASIDA YURITILGAN YOZISHMALAR

Annotasiya

Maqolada Xiva xonligi saroy devonxonasida yuritilgan rasmiy yozishmalar turlari va mazmun jihatdan xususiyatlari tahlil qilinadi. Devonxona yozishmalari orqali davlat boshqaruv tizimiga aloqador hujjatlar hamda ma’muriy ish yuritish an’analari shakllanish jarayoni ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Xiva xonligi, devonxona, maktublar, omonnoma, ozodnoma, fathnoma, inoyatnoma.

**Kirish.** O‘tmish yozma merosimizning ma’lum bir qismini rasmiy yozishmalar tashkil etadi. Turkistondagi sulolalar hukmdorligi davrida hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan rasmiy yozishmalar davlat boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida shakllangan. Bu yozishmalar orqali hukmdorlar o‘z amaldorlari, ulamolar, saroy ahli, shuningdek, hukmdor oila a‘zolari (shaxzodalar, volida va mahramlar) bilan doimiy ravishda siyosiy, ijtimoiy, ma’muriy masalalarni muhokama qilib borganlar. Bu uchun o‘z navbatida maxsus shakl va mazmunga ega hujjatlar qo‘llanilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** So‘ngi yillarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ular orasida professor U.Sultonovning [7] yozishmalar turlari va ularning manbaviy ahamiyatiga qaratilgan o‘quv qo‘llanmasi muhim o‘rin tutadi. Xiva xonligi hududida ikki yirik sulolalar davrida qo‘llanilgan tashqi aloqalar bilan bog‘liq yozishmalar to‘g‘risida N.Allaevaning [1] tadqiqot ishlariga murojaat qilish o‘rinli. Yosh tadqiqotchi olimlar orasida D.Ahmedovanning [2] Turkiston xonliklarida yuritilgan maktub turlari va ularning manbaviy tahliliga bag‘ishlangan ishi ayricha o‘ringa ega.

**Tahlil va natijalar.** Qadimgi turkiy tillarda qalam bilan bitilgan yozuvlar bitiklar deb atalgan. Arablar istilosidan so‘ng “bitik” so‘zi o‘rniga “xat”, “maktub” kabi so‘zlar ishlata boshlangan [5]. Tarixiy jarayonlar tahliliga ko‘ra, arab xalifaligini har tomonlama tartibli boshqarish ehtiyoji devonxona ishining takomillashuviga, kotiblik faoliyatining rivojlanishiga hamda tarassul – rasmiy yozishmalar janrining paydo bo‘lishiga olib keldi [8]. Buning natijasida, yana bir yangi janr rasoil – yozishmalar (noma) janri yuzaga keldi. Ko‘p o‘tmay rasoil janrining sultoniyat, ixvoniyat, tavqeo‘t kabi bir necha turlari paydo bo‘ldi.

Ma’lumki, musulmon hujjatchiligida arab xalifasi Muoviya (661 – 680 yy.) tomonidan voliyar va davlat amaldorlariga yozilgan maktublarning nusxasini olib qolish

amaliyoti joriy etilganidan so‘ng, u bilan bog‘liq tarzda ish yuritishida alohida devon ar-rasoil (maktublar devoni) tizimi yuzaga kelgan. Keyinchalik bu devon “devon al-insho” shaklini olgan. Vaqt o‘tishi bilan yozishmalar devonining faoliyati kengaydi, u nafaqat rasmiy buyruqlarni tarqatish, balki diplomatik aloqalarni yuritish, tashqi davlatlar bilan yozma muloqot olib borish, davlat ichki ma’muriyatining muhim qarorlarini hujjatlashtirish kabi vazifalarni ham bajara boshladi. Natijada tarassuldan keyin murosalo janri ham shakllandi.

Murosalo so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “yozishmalar, xat almashinuvlari, rasmiy xat-xabar yuborish va olish” ma’nolarini anglatadi. O‘rta asr musulmon davlatchiligida murosalo davlatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalarda, shuningdek ichki boshqaruv tizimida rasmiy xat almashinuvlarini ifoda qilish uchun qo‘llanilgan. Turkiston xonliklari davrida bu yo‘nalishda yaratilgan asarlar munshaot yoki maktubot kabi nomlar bilan ommalashgan.

Xiva xonligida yozishmalar devoni davlat boshqaruv tizimining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Bu idora ichki va tashqi siyosiy munosabatlarda rasmiy yozishmalarni yuritish, yorliq, farmon va qonunlarni rasmiylashtirish, xon nomidan qonun hujjatlari va maktublar tayyorlash bilan shug‘ullangan. Bu rasmiy yozishmalar, asosan, hukmdorning noma va maktublari kabi shakllarda namoyon bo‘lib, ular muntazam ravishda iqtidorli munshiyar tomonidan tartibli va uslubiy asosda yuritilgan. Yozishmalarni asl nusxalari va ularning ko‘chirmalari mazmunidan kelib chiqib, quyidagi qismlarga ajratish mumkin: avvalo ichki ma’muriy tizimga daxldor (mamlakatdagi amaldorlar, hokimlar, amirlar, ulamolar bilan yuritilgan) mahalliy yozishmalar; shaxsiy yozishmalar (xon yaqinlari, farzandlari, shayxlari, mashhur mutasavviflar bilan tuzilgan nomalar); xalqaro yozishmalar (diplomatik munosabatlarga oid maktublar) kabi turlarga bo‘linadilar [7].

Xalqaro yozishmalar. O'zbekiston Milliy arxivi "Xiva xonligi devonxonasi" fondida saqlanayotgan 1268 ta jildlik hujjatlar (17–20-yuzyillik boshlari) ro'yxatida xalqaro diplomatik aloqalar va xorijiy davlatlar rahbarlari bilan yozishmalar o'rin olgan [3]. Xalqaro diplomatik yozishmalarga davlatchiligimiz tarixida hukm surgan saltanatlardan qolgan hoqon, xon va sultonlarning bir-biriga yo'llagan maktublari hamda ularning o'zlariga qaram – vassal hukmdorlarga jo'natgan – maktublari, fathnomalar, ahdnoma, omonnoma, ozodnoma kabi hujjat turlari kiradilar.

Maktublar yozma manbalarning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Maktublar mazmuniga ko'ra xonlik saroyidan chiqib ketuvchi va boshqa davlatlar saroyidan keluvchi xatlarga bo'lingan. "Xiva xonligi devonxonasi" jamg'armasida Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari aloqalariga oid 200ga yaqin maktublar saqlanadi [4]. Maktublarning bir qancha turlari mavjud, ular: inoyatnoma, muhabbatnoma, istimolotnoma, ma'ziratnoma, tahniyatnoma, ixlosnoma deb ataladilar. Ushbu turdagi xatlar mahalliy "Solnomalar"da umumiy nom bilan «maktub, noma, maktubot» yoki «kotibat» deb yuritilganlar [1]. Ushbu yozishmalar o'z mazmun va vazifasi jihatidan bir-biridan yaqqol farqlanib turadi. Ularning maqsadi, maqomi va mazmuni turli siyosiy-ijtimoiy holatlarga ko'ra o'zgarib borgan.

Muhabbatnoma, ikki davlat hukmdorlari yoki yuqori maqomdagi shaxslar o'rtasida o'zaro hurmat va samimiy munosabatlarning ifodasi sifatida yozilgan maktub turidir. Bunday xatlarda o'zaro do'stona munosabatlarni mustahkamlash, ittifoqlik va hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun maqsadlar belgilanadi.

Muvolifatnoma turidagi hujjatlardan namunalar ko'proq tarixiy asarlarda uchraydi. Masalan, Ogahiyning "Gulshani davlat" asarida Xiva xoni Sayid Muhammadxon Avazmurod mirobni Buxoroga elchi qilib, u orqali amir Nasrullohga "julus axbori va sodir bo'lgan ba'zi voqealar izhori uchun muvolifatnomai nomiy va muhabbatnomai kiromiy topshurub, irsol qildi" [6], jumlasini orqali, ittifoqni ifodalovchi mazmunidagi noma yo'llaydi. Bu turdagi nomalarda ikki taraf o'rtasidagi o'zaro anglashuv, tinchlik va birgalikda harakat qilish istagi alohida ta'kidlanadi.

Istimolotnoma. Arab va forsiy tildan o'zlashgan ushbu atama – chaqiriq xati, murojaatnoma [9] deya tarjima qilinadi hamda biron toifa yoki shaxsni o'z tarafiga ag'darish, da'vat qilish uchun yozilgan maktub tushuniladi. Xiva xonlari tomonidan Qo'qon xonlariga ularning harbiy harakatlari qo'llab-quvvatlangan istimolotnoma xatlari yuborilgan [2].

Tahniyatnoma – rasmiy yoki shaxsiy tabrik maktubi bo'lib, u muayyan bir voqea, bayram, farzand tug'ilishi, nikoh, islomiy bayram yoki boshqa muhim voqelik munosabati bilan tabriklash maqsadida yo'llanadi. Bu turdagi yozishmalarda, odatda, tabrik so'zlari bilan birga, duo, yaxshi tilaklar, muvaffaqiyatlar tilash va xayrli orzu-umidlar ham bayon qilinadi.

Ma'ziratnoma (ma'zuratnoma), arabcha "ma'ziyrat" – ya'ni "uzr", "kechirim" so'rash ma'nolaridan kelib chiqqan bo'lib [11], bu turdagi noma odatda yuzaga kelgan xatolik, kechiktirilgan javob, amalga oshmagan va'da yoki bajarilmagan vazifa uchun rasmiy yoki shaxsiy kechirim so'rash maqsadida yuboriladi. Tarixiy asarlarda ushbu noma bilan bog'liq misollar ko'plab uchraydi. Misolani, Sayid Muhammadxon hukmronligi boshida yovmutlar isyonini bilan bog'liq siyosiy jarayonda "Siddiq eshon yavmut tavoyifining Vakil va Baxsh boshlig' barcha akobir va kadxudolari tilidim jurmu isyonlari uchun e'tizor va istig'forg'a mushtamil bo'lg'an bir ma'zuratnoma kelturub..", o'zlarining sodir etgan isyon va gunohlari uchun kechirim so'rab, muhrlar bilan tasdiqlangan ma'ziratnoma (uzrnoma)ni hukmdorga taqdim etadilar. Xon ularning gunohlarini kechirib, shartli ravishda uzrlarini qabul qiladi.

Musodaqatnoma. Aslida "musodaqat" so'zi, ikki tomonning bir-biriga ishonishi, samimiyat, samimiy dustlik, sodiqlik anglamlarida tushuniladi. Musodaqotlik – samimiylikni ko'rsatishga urinish o'laroq, rasmiy noma sifatida ko'pincha hukmdorlar o'rtasida almashinilgan tuhfalarni qabul qilangani to'g'risidagi holatga minnatdorchiilik bildirishdek yozilgan xatdir. Masalan, Ogahiyning asarida, Sayid Muhammadxon hukmronligi bilan bog'liq "Yilon yilining voqe'oti" qismida To'ra Murod otaliq xonning inoyati bilan elchi sifatida Buxoroga yuborilgan edi. Buxoro amiri Nasrulloh ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va o'zaro sadoqatni namoyan etish maqsadida o'zining ishonchli, obro'li amaldorlaridan bo'lgan Abdulaziz to'qsobani elchi qilib, musodaqatnomai nomiy va tuhafoti kiromiy topshurub, shavvol oyining 17-kuni (seshanba) Xiva dargohiga otaliq bilan birga qaytishgani voqeasi bayon qilinadi [6].

Fathnoma, muayyan siyosiy yoki harbiy kuchning boshqa bir hududni egallagani, unga yurish uyushtirgani, uni o'z tasarrufiga olgani haqidagi rasmiy xabarni anglatadi. Bu so'z tarixiy-diplomatik yozishmalarda, ayniqsa, g'alaba to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlarni ifoda etishda qo'llaniladi. Fathnomalar, hukmdorning o'z saroyiga, ya'ni uning bosh qarorgohi yoki markaziy boshqaruv idorasiga, davlat amaldorlari, qo'shin boshliqlari, viloyat hokimlari, ittifoqchi hukmdorlar yoki chet eldagi siyosiy hamkorlar kabi mansabdor shaxslarga yuborilgan.

Omonnoma, arabcha "omon" so'zidan olingan bo'lib, xavfsizlik, xotirjamlik, shafqat va rahm [10] ma'nolarini anglatadi. U forscha "noma" (xat, maktub) so'zi bilan birlashib, "omonnoma" shaklida qo'llaniladi. Bu turdagi hujjatlar harbiy yurishlar davrida g'olib hukmdor tomonidan zabt etilgan shahar, qal'a yoki hudud aholisiga nisbatan muhlat berish, ularni avf etish [7], mol-mulki, joni va obro'sini himoya qilish kafolati sifatida rasmiy ravishda rasmiyatga kiritilgan.

Ozodnoma. Turkiy davlatlar va xonliklar devon tizimida "bo'sh bitig" – "erkinlik beruvchi hujjat" ma'nosida qo'llanilgan hujjat turi yuritilgan. YA'ni, bu yerda "bo'sh" – "erkin, ozod" degan ma'noni ifodalaydi [9:61]. Musulmon hujjatchiligida "mustaxlas" atamasi "xalos etilgan, ozod qilingan" ma'nosida mazmun jihatdan ayni o'rinda qo'llanilgan. Xiva xonligida turkiy an'analarning davomi sifatida "noma" atamasi bilan birikkan holda ozodnoma turi keng qo'llanilgan. Xiva qonunchilik hujjatlari qatorida ozodnoma, qullikdan ozod qilish yoki ayrim shaxslarni muayyan majburiyatdan xalos etish maqsadida tuzilardi.

Mahalliy yozishma turlari. Mahalliy yozishmalar tuzilishi va mazmuniga ko'ra bir biriga yaqin bo'lgan maktub, noma, muboraknoma kabi hujjatlar orqali amalga oshirilgan. Ular, faqat hukmdor va amaldorlar o'rtasida emas balki, davlatning yuqori mansabdorlari va quyi tizimidagi xizmatchilar o'rtasida yuritilgan.

Ma'muriy boshqaruv tizimidagi eng ko'p tarqalgan hujjat turi muboraknomadir. Xiva xonligida bu vazifani "fatak" yoki "nishon" nomli hujjat bajargan. Biroq, B.Qozoqovning fikricha muboraknomaning funksiyasi inoyatnomaniki bilan birdir. Xiva hujjatchiligida muboraknoma o'rnida inoyatnoma hujjat turidan foydalanilgan. Ushbu so'z "inoyat", ya'ni arabchadan marhamat, lutf, iltifot [11] hamda forscha "noma" so'z birikmasidan hosil bo'lgan bo'lib, podshoh, xon, amir, shuningdek, boshqa ulug' mansabdor kishilardan kelgan va unda ma'lum iltifot bayon qilingan maktub sanaladi. Inoyatnoma – Xiva xonligida qo'llanilgan rasmiy hujjat turlaridan biri bo'lib, u asosan hukmdor tomonidan muayyan shaxsga nisbatan ko'rsatilgan himoya, rahm-shafqat va e'tiborni rasmiylashtirish vazifasini bajargan.

Shaxsiy yozishmalar. Xiva xonligida yuritilgan shaxsiy yozishmalar ham hujjatchilik tizimining muhim

qismidir. Ular rasmiy qonunchilik hujjatlaridan farqli ravishda shaxsiy munosabatlarni ifoda etish uchun qo'llanilgan. Shaxsiy yozishmalar kishilarning o'z yaqinlari ota-onasi, aka-ukalari, farzandlari, do'stlari, ustoz-shogird, pir-murid o'rtasida olib borilgan. Bu turkumdagi yozishmalar salomnoma, muhabbatnoma, noma, maktub kabi nomlar bilan yuritilgan. Xiva xonligida yuritilgan shaxsiy yozishmalar faqat shaxsiy hayot bilan cheklanib qolmagan. Bunda, xon farzandlari bilan xat almashuv orqali davlat ishlariga oid maslahatlar o'tkazilgan. Shayxlar va ulamolalar bilan shaxsiy yozishmalar orqali diniy-axloqiy masalalar kengashilgan. Oilaviy yozishmalar orqali meros, mulk va nikoh kabi huquqiy munosabatlar ham tartibga solingan.

**Xulosa.** Xiva xonligida yozishmalar muloqot mezonining ko'rinishi o'laroq muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Ular saroy devonxonasida iqtidorli munshiylar tomonidan rasmiylashtirilgan. Birinchidan, yozishmalar davlatlararo munosabatlarning yozma ifodasi o'laroq, ularda, qardosh xalqlar, qo'shni mamlakat va xorijiy davlatlar o'rtasida rivojlangan aloqalar aks etadi. Ikkinchidan, yozishmalar asosan hukmdor va mansabdor shaxslarning o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yishda xizmat qilgan. Uchinchidan, yozishmalar o'z davrida muomalada bo'lgan tarixiy atama va terminlar, tarixiy shaxslar, voqeotlar, davlat arboblari, lavozimlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Umuman olganda esa, bu turdagi hujjatlar zamon ruhini chuqur o'rganishda, sharqona davlat ish yuritish tamoyillarini anglab yetishda muhim o'rin tutadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Аллаева Н.А. XVI – XIX асрнинг 70-йилларида Хива хонлиги ташқи алоқалари тарихи. Тарих фанлари доктори (DsC) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 82 б.
2. Аҳмедова Д.Х. Манғит-қўнғирот-минг сулолаларининг ўзаро ёзишмалари муҳим тарихий манба сифатида. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2024. – 30 б.
3. Аҳмедова Д.Х. «Хива хонлиги девонхонаси» фондидаги ҳужжатларда элчилик алоқалари тарихига доир айрим маълумотлар // Ўзбек давлатчилиги тизимида даргоҳ ва девонлар илмий-амалий конференция тўплами. – Тошкент: “Академнашр”, 2019. – Б. 238-243.
4. Аҳмедова Д.Х. Мактублар манба сифатида. // “Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари”. Республика XV илмий-амалий конференция материаллари 15-илмий тўплами. – Тошкент, 2023. – Б. 14-17.
5. Нуридинов Э.З. Игамбердиев И.Р. Тарихий ва ижтимоий-сиёсий сўз ва атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2021. – 560 б.
6. Огаҳий Муҳаммад Ризо Эрнӣзбек ўғли. Гулшани давлат (Хива хонлиги 1856-1864 йилларда). Матн табибли / Масъул муҳаррир: Ш.Воҳидов. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2012. – 244 б.
7. Султонов Ў. А. Мусулмон мамлакатлари дипломатикаси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврӯз, 2019. – 186 б.
8. Сулаймонова Ҳ.М. Девонхона фаолиятини юритишда абу мансур ас-саолибий назмий тазкираларининг ўрни // Ўзбек давлатчилиги тизимида даргоҳ ва девонлар фаолияти тарихидан. – Тошкент: “Академнашр”, 2019. – Б. 48-50.
9. Содиқов Қ. Илк ва Ўрта асрларда яратилган туркий ҳужжатлар. – Тошкент, 2016. – 166 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. О ҳарфи. // А.Мадвалиев таҳири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 129 б.
11. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. Тўлдирилган иккинчи нашри. // Масъул муҳаррир: т.ф.д., профессор Ш.Воҳидов. – Тошкент: “Академия” нашриёти, 2002. – 316 б.